

20-Sentyabr, 2025-yil

**MURAKKAB BICHIMLI KIYIMLAR O'RNASHTUVI TADQIQ QILISH VA  
AYOLLAR USTKI KIYIMI DIZAYN-LOYIXASINI ISHLAB CHIQISH**

**Soipova Zuxra**

*Respublika rassomchilik maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida murakkab bichimli kiyimlar, xususan, ayollar uchun mo'ljallangan ustki kiyimlar o'rashuvni va ularning konstruktorlik-taxlil usullari chuqur o'rganildi. Zamonaliv moda tendensiyalari, inson anatomik xususiyatlari hamda komfort talablari hisobga olingan holda, murakkab konstruksiyali ustki kiyim namunasining dizayn-loyihasi ishlab chiqildi.

**Ka'lit so'zlari:** Murakkab bichim, loyiha, konstruksiya, estetika, moda tendensiyalari, funksionallik, milliy an'analar

**ИССЛЕДОВАНИЕ И РАЗРАБОТКА ДИЗАЙН-ПРОЕКТА ЖЕНСКОЙ  
ВЕРХНЕЙ ОДЕЖДЫ СЛОЖНОЙ ФОРМЫ**

**Соипова Зухра**

*Преподаватель Республиканской школы искусств*

**Аннотация:** В настоящей исследовательской работе было глубоко изучено размещение одежды сложной формы, в частности, женской верхней одежды, и их конструктивно-аналитические методы. С учетом современных модных тенденций, анатомических особенностей человека и требований к комфорту разработан дизайн-проект образца верхней одежды сложной конструкции.

**Ключевые слова:** Сложный формат, проект, конструкция, эстетика, модные тенденции, функциональность, национальные традиции

**COMPLEX WRIST DRESS FITTING RESEARCH AND DEVELOPMENT OF  
WOMEN'S TOP DRESSING DESIGN-NICHE**

**Soipova Zuhra**

*Lecturer at the Republican School of Arts*

**Annotation:** in this research work, an in-depth study of complex wrist clothing, in particular the overalls designed for women, and their constructor-taxing methods. Taking into account modern fashion trends, human anatomical features and comfort requirements, a design-project of a superstructure pattern was developed.

**Key words:** Complex beech, project, construction, aesthetics, fashion trends, functionality, national traditions

20-Sentyabr, 2025-yil

Zamonaviy kiyim modellashtirish amaliyotida barcha yoshdagi iste'molchilar ning o'lcham va to'lalik guruxlariga mo'ljallangan bir necha yetakchi siluetlar qabul qilingan. Ulardan 3 tasi to'g'ri, yopishgan, nim yopishgan ko'p yillar mobaynida moda o'zgarishlariga qaramay asosiy, klassik siluetlarga aylangan. Siluet fransuzcha, “silhouette” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, predmetning tekislikka tushgan kontur chiziqlarni anglatadi. Ayrim davrlarda etagi kengaygan yoki toraygan trapesiyasimon siluet ham modadan o'rinn egallab kelgan.

Kiyimning shakli muxum kompozitsion elementlardan biri hisoblanadi. Uning taxlili quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi.

chiziqlari, bezaklari, ko'rinaligan choklari, gazlamaning turi;  
uning sirti, shakllanish xususiyatlari;  
kiyimning to'kislik darajasi;  
kiyim shaklining ichki tuzilishi;  
odam qomatiniq plastik shakli.

Kiyimning shakliy harakteristikasi. Kiyimning shaklini asosan siluet, konstruktiv va dekorativ chiziqlar tashkil etadi.

Siluet chiziqlari kiyim proporsiyalari, xajmiy shakli va uning tashqi kontur chiziqlari bilan aniqlanadi. Siluet chiziqlari qatoriga yelka, bel, etak, hamda kiyimning old va yon tashqi qiyofasini idrok qilishga yordam benradigan chiziqlar kiradi [1].

Kiyim bichimi. Kiyim detallarining shakli va o'lchamlariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri uning bichimi hisoblanadi. Bichim kiyimning konstruktiv va umumiyligi tuzilishini harakterlaydi. Kiyim bichimi uning yengini asosiy detallari bilan ulagan o'miz shakli va bu detallardan mavjud bo'ylama va ko'ndalang chiziqlari bilan aniqlanadi. Demak, bichim turli shaklda bichilgan va ulangan detallar yordamida tuzilgan kiyimmning umumiyligi ko'rinishidir [2].

Yenglarning kiyimning asosiy detallari old va ort bo'laklar bilan ulanish turi va siluetli shakli bo'yicha bir-biridan jiddiy farqlanadigan o'tqazma, reglan va yaxlit bichilgan asosiy bichimlarga ajiratish mumkin. Lekin, reglan va yaxlit bichilgan yenglar o'tqazma yengda xosil bo'lgan. O'tqazma yeng, o'z navbatida, shakli va bichimi bo'yicha oddiy va chuqurlashtirilgan o'mizga mos yenglarga ajiratiladi.

Yenglarga oid asosiy bichimlarning turli birikmalari qo'shimcha ravishda xosil bo'lgan, yangi kompozitsiyalashtirilgan xilini tashkil etadi. Masalan, orit bo'lak yaxlit bichilgan yengli, old bo'lak esa o'tqazma yengli v.x.k. O'tkazma yengni asosiy detallar billan biriktirma choki qo'l tana bilan birlashgan chiziqqqa yaqinlashib o'tadi. Reglan bichimdagi buyumning o'ziga xos xususiyati yoqa o'mizidan boshlanadigan yeng o'mizidir. Shu sababli reglan yeng tikuv buyumining yuqori qismi bilan birga bichiladi. Ort va old bo'laklarda yeng o'mizi yelka chizig'inining istalgan nuqtasidan broshlansa, yarim reglan bichimi xosil bo'ladi [3].

Turli bichimdagi yenglar ham qator bo'laklardan tuzilishi mumkin: bir chokli - ostki yoki tirsak chokiga ega; ikki chokli- old va tirsak chokli, yoki ustki va ostki chokli; - uch chokli old, tirsak va ustki chokli.

20-Sentyabr, 2025-yil

Kiyimning yuqori qismi pastki qism bilan bel chizig‘ida yaxlit bichilgan yoki qirqma bo‘lishi mumkin. Old va ort bo‘laklarining qirqma yuqori qismi koketka, deb ataladi. Kiyimning konstruktiv harakteristikasi. Kiyimning konstruktiv tuzilishi uning bichimi va silueti, detallarning shakli, birikma choklarning turi va materiallar xili bilan harakterlanadi.

Modellash bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining konstruktsiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagi modalar konstruktsiyasini tuzilmoqchi bo‘lgan asosiy konstruktsiya bazasidan olish mumkin. Bu jarayon amaliy modellash yoki odatda, aytishiga binoan texnik modellash deb ataladi. Texnik modellash tipovoy konstruktsiya asosini yangi model konstruktsiyasiga aylantirishdan iborat[3].

Model chiziqlarining hammasini konstruktsiya asosining chizmasida xuddi model rasmidagidek joylashtirish kerak. Bunda ayolning gavda tuzilishining xususiyati, uning prportsiyasi albatta hisobga olinishi kerak. Bu konstruktsiya asosining chizmasiga tushirilgan fason chiziqlari gavdaning haqiqiy proportsiyasini buzib qo‘ymasligi uchun kerak. Fason chiziqlarining bichimi va silueti mos keladigan konstruktsiya asosining chizmasiga tushiriladi. Masalan, modelning yenglari old va ort bo‘laklar bilan yaxlit bichiladigan konstruktsiya asosining chizmasida bo‘lishi kerak va hokazo.

XX asr o‘rtalarida o‘ta murakkab bichimli ko‘krak burma, no‘g‘oy ko‘ylak, kamzor burish, burma ko‘ylak kabi liboslar ayollar o‘rtasida keng ommalashdi. Ko‘krak burma ko‘ylak yosh ayollar, o‘rtal va keksa yoshli ayollar o‘rtasida ziyolilar hamda xizmatchilarning milliy libosi sifatida mustahkam o‘rin egalladi. Kiyimning ko‘krak burma va yoqa bichimida o‘zgarishlar yuz berdi. Uning oldingi va orqa tomonlari yelka chizig‘i bo‘ylab ko‘krak hamda kurak qismlarga ajratib bichilib, asosiy qismga qo‘sib tikiluvchi quyi tomoni esa uchburchak shaklini oldi. Yoqa qaytarmali bo‘lib, uchlari o‘tkir yoki aylana ko‘rinishga kirdi. Yeng an’anaviy ravishda yaxlit va cho‘zinchoq mato bo‘lagidan bichilar, o‘rishning bo‘ylama ipi ham u bo‘ylab o‘tardi[4].

Zamonaviylik ta’siri ostida yetmishinch yillarda ko‘krak burma ko‘ylak kaltaroq – boldir o‘rtasiga yetadigan qilib tikila boshlandi, yenglar bilakkacha yetar va aylanasimon qo‘ltiq o‘miziga tikilardi. Ko‘krak burmasi xilma-xil – to‘g‘ri, yarim aylana yoki uchburchak shakllarga kirdi. Bu ko‘ylaklarning yoqasi qaytarma bo‘lib, uchlari o‘tkir yoki aylana shaklida bo‘lgan. Shundan keyingi yillarda ko‘ylak bichimi yevropacha modaning turli qismlari hisobiga boyib bordi. Bo‘yin o‘ymasi, ko‘krak burmasi va etak turli-tuman taxlar, burmalar, qat-qat tax, burmali hoshiya, kashta va hokazolar bilan bezatila boshlandi. Ko‘krak burmasi va asosiy qism ham xilma-xil ko‘rinishlarga uchradi.

Figuraga moslashgan konstruktiv yechimlar: qanotlar, qatlamlar, assimetriya, transformer elementlar va boshqa vizual effektlar. Har bir millatning madaniy merosi va an’anaviy kiyim-kechagi uning milliy o‘zligini namoyon etadi. Ayollar uchun mo‘ljallangan ustki kiyimlar nafaqt hayo va nafosatni, balki zamonaviy uslubni ham o‘zida mujassam etmog‘i lozim. Bu maqolada murakkab bichimli kiyimlar urnashuvi tadqiq qilinib, ayollar uchun estetik jihatdan qulay, zamonaviy va milliy uslubdagi ustki kiyim dizayn-loyihasini ishlab chiqish usullari o‘rganiladi [5].

20-Sentyabr, 2025-yil

Moda san'ati insonning estetik ehtiyojlari, ijtimoiy mavqeい va shaxsiy didi ifodalanadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi rivojlanish nafaqat oddiy kiyimlar, balki murakkab bichimli, konstruktiv va funksional kiyimlar orqali ham namoyon bo'ladi. Bu kabi kiyimlar odatda faqat moda uchun emas, balki teatr, kino, maxsus tadbirlar, hamda yuqori darajadagi dizayn ko'rgazmalarida qo'llaniladi

Tadqiqot doirasida murakkab bichim elementlarining o'rni, ularning kiyim o'rnashuviga ta'siri, material tanlashning ahamiyati, hamda texnologiyaviy jarayondagi muhim bosqichlar tahlil qilindi. Shuningdek, kompyuter dasturlari yordamida kiyim modeli eskizlari va konstruktorlik hujjatlari ishlab chiqildi[5].

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Raximova Z.M. – “Zamonaviy texnologiyalarda murakkab konstruksiyali kiyim yaratishning o'rni”. TTITU Ilmiy Axborotnomasi, 2022.
2. Sodikova N. // O'zbek ayollarining milliy kiyimlari. 2007, B. 98
3. Oqilova K. Dizayn nazariyasi, amaliyoti va rivojlanish istiqboli //San'at, 2014. – №3. – B. 9.
4. Sodiqova N. O'zbek ayollarining milliy kiyimlari // Sharq, 2007. – B.78- 92
5. Xodjaeva G. – “Kiyim dizayn jarayonida milliy an'analardan foydalanish”. Madaniyat va san'at, 2021.